

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari
2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 1 236,1 mingtani tashkil etdi. Shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklari bilan birga) – 526,7 mingta, yakka tartibdagi tadbirkorlar – 375,1 mingta, dehqon xo'jaliklari – 334,4 mingta, oilaviy tadbirkorlar – 5,1 mingta, hunarmandlar – 23,2 mingta hamda 1,1 mingtasi import tovarlari sotuvchilardan iborat.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni
2026-yil 1-iyul holatiga, birlik

	Jami	shundan:	
		kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)	YATT, dehqon xo'jaliklari, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilar ¹
O'zbekiston Respublikasi	1 236 126	526 659	709 467
Qoraqalpog'iston Resp.	61 229	26 155	35 074
Andijon	113 781	31 030	82 751
Buxoro	73 736	32 437	41 299
Jizzax	55 111	24 160	30 951
Qashqadaryo	97 923	40 517	57 406
Navoiy	42 536	22 165	20 371
Namangan	82 779	30 371	52 408
Samarqand	118 652	48 349	70 303
Surxondaryo	73 642	28 719	44 923
Sirdaryo	38 999	14 644	24 355
Toshkent	104 694	49 898	54 796
Farg'ona	115 860	44 010	71 850
Xorazm	95 990	31 184	64 806
Toshkent sh.	161 194	103 020	58 174

¹ Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

Faoliyat yuritayotgan, yuridik shaxs tashkil etmagan
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni

2026-yil 1-iyul holatiga, birlikda

	Jami	Yakka tartib- dagi tadbir- korlik	shundan:			Dehqon xo'jaliklari
			Oilaviy tadbirkorlar	Hunarmand- lar	Import tovarlari sotuvchilar	
O'zbekiston Respublikasi	709 467	375 071	5 053	23 163	1 065	334 396
Qoraqalpog'iston Resp.	35 074	22 053	508	1 121	5	13 021
Andijon	82 751	31 683	135	2 113	33	51 068
Buxoro	41 299	22 383	303	1 530	20	18 916
Jizzax	30 951	14 339	65	1 032	6	16 612
Qashqadaryo	57 406	27 542	234	1 547	10	29 864
Navoiy	20 371	9 630	44	452	8	10 741
Namangan	52 408	27 003	39	2 048	459	25 405
Samarqand	70 303	37 365	486	2 209	23	32 938
Surxondaryo	44 923	20 302	106	1 170	6	24 621
Sirdaryo	24 355	10 286	36	462	4	14 069
Toshkent	54 796	35 173	1 038	1 830	50	19 623
Farg'ona	71 850	40 259	138	2 743	33	31 591
Xorazm	64 806	18 965	499	1 919	9	45 841
Toshkent sh.	58 174	58 088	1 422	2 987	399	86

2026-yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 32,2 birlikni tashkil etdi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining eng yuqori ko'rsatkichi (har 1000 aholiga) Toshkent shahrida – 50,4 birlik, Xorazm viloyatida – 46,3 birlik, Sirdaryo viloyatida – 41,1 birlik va Navoiy viloyatida – 38,1 birlikka teng bo'ldi.

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-iyun oylarida 44,0 mingta yangi kichik korxona va mikrofirma (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etildi. Bu davrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi savdo sohasiga to'g'ri kelib, 15 657 tani tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda sanoat (5 450 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (5 368 ta), hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari (4 115 ta) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi hajmi 518 667,5 mlrd so'mni tashkil etdi, ularning YAIM umumiy hajmidagi ulushi esa **50,5 %**ga yetdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi hajmi dinamikasi



2026-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat bo'yicha kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **95,4 %**, qurilishda – **76,9 %**, xizmatlar sohasida – **76,6 %** hamda tashish va saqlash, axborot va aloqa – **58,2 %** ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 180 297,0 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi, bu umumiy sanoat ishlab chiqarishi hajmining **28,3 %** ga tengdir. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,2 %** ga yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) dagi ulushi](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 143 867,9 mlrd so'mni, ya'ni umumiy qurilish ishlari hajmining **74,9 %**ni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,9 %**ga yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga 225 296,9 mlrd so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi va ularning umumiy hajmdagi ulushi **66,5 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan **122,4 %** ga yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari) hajmi 257 149,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmning **94,9 %**ni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,2%**ga yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi 202 127,1 mlrd so'mni tashkil etib, umumiy hajmning **80,3 %**ga teng bo'ldi. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,0 %**ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 374 210,9 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (umumiy hajmning **56,3 %**), bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan **115,8 %** ga o'sdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlari hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi 7 479,4 mln AQSH dollarini, ya'ni umumiy eksport hajmining **47,2 %**ini tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot
(tovar, ish va xizmat)lar eksporti hajmi dinamikasi**




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ish, xizmat\)lar eksporti hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ish, xizmat\)lar eksportidagi ulushi](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan import qilingan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi 13 032,6 mln AQSH dollarini yoxud uning umumiy hajmining **51,8 %**ini tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot
(tovar, ish va xizmat)lar importi hajmi dinamikasi**



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ish, xizmat\)lar importi hajmi](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ish, xizmat\)lar importidagi ulushi](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashish umumiy hajmining **57,1%**i kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,9%** ni tashkil etdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda avtomobil transporti yuk aylanmasi umumiy hajmining **77,6 %**i kichik tadbirkorlik hissasiga to'g'ri kelgan. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati esa **110,5 %**ni tashkil qilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



2026-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **90,9 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan **105,7 %** ga yetdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlari ulushi **95,2 %** ni tashkil qildi. O'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan **105,3 %** ga yetdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi](#)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Kichik tadbirkorlik ulushining tarmoqlar bo'yicha shakllantirilishi sohaviy boshqarmalarning tegishli metodologik qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

Unga ko'ra, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati inobatga olingan holda joriy narxlarda taqdim etiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmning o'zgarishi narxlar indeksi o'zgarishini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Metama'lumot uchun havola:

[Korxonalar va tashkilotlar soni – metama'lumot](#)

[Kichik biznes ko'rsatkichlari – metama'lumot](#)

[Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha ulushi – metama'lumot](#)

